

"DEVONU LUGO'TIT TURK" QO'LYOZMASIDA BERILGAN HASHAROTLAR (INSECTORUM) KLASSIFIKATSIYASI

*Sobitov A'zamxon Tursunpo'lot o'g'li,
Namangan davlat universiteti Jahon tillari fakulteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o'qituvchisi
tursunpulotovich21@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XI asrga tegishli Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (Turkiy so'zlar devoni) qo'lyozmasi tarkibida kelgan ikki qanotlilar, parda qanotlilar, qo'sh parda qanotlilar, yumshoq qanotlilar, o'rgimchaksimonlar, xalitserialilar turkumiga kiruvchi hasharot nomlarining qiyosiy tahlil to'g'risida so'z yuritiladi. Mazkur zoonimlarning ayrimlari yakka so'z holatida, ayrimlari esa adabiy janrlar hisoblanmish maqol hamda she'riy parchalar tarkibida kelgan bo'lib, mazkur zoonimlar batafsil izohlar va ta'riflar bilan boyitilgan. Qo'lyozmada kelgan qadimgi turkiy va o'g'uzcha hasharotlar nomlarini bugungi kundagi o'zbek tili nutq jarayonlarida ishlatib kelinayotgan shakli bilan qiyoslashda "O'zbek tili izohli lug'ati" dan keng foydalanilgan.

Kalit so'zlar. Hasharot, entomologiya, qattiq qanotli hasharotlar, arxaik, umurtqasizlar, bo'g'imoyoqlilar, semantika, etimologiya, semantik o'zgarishlar, organik suyuqliklar, subtropik, instinkt, himoya qobig'i, bargxo'r, fonetik o'zgarish.

"DEVONU LUGO'TIT TURK" EL YAZISINDA VERİLEN BÖCEKLERİN SINIFLANDIRILMASI (İNSECTORUM)

*Sobitov A'zamkhon Tursunpo'lot oglu,
Namangan devlet üniversitesi Dünya dilleri fakültesi
Yabancı diller bölümü öğretim görevlisi*

Özet. Bu makalede, Kaşgarlı Mahmud'un "Devonu lug'otit turk" (Türkçe Sözcükler Sözlüğü) adlı eserinin 11. yüzyila ait el yazması metninde yer alan Diptera, Hymenoptera, Hymenoptera, Yumuşak kanatlılar, Araknidler ve Chalcididae familyalarına ait böcek adlarının karşılaştırmalı analizi ele alınmaktadır. Bu zoonimlerin bir kısmı tek kelime olarak karşımıza çıkarken, bir kısmı da edebi türler olarak kabul edilen atasözleri ve şiir metinleri şeklinde karşımıza çıkmaktadır. Bu zoonimler detaylı açıklamalar ve tanımlarla zenginleştirilmiştir. El yazmasında bulunan eski Türk ve Oğuz böcek adlarının, günümüz Özbek konuşma dilinde kullanılan biçimleriyle karşılaştırılması amacıyla "Özbek Dili Açıklamalı Sözlüğü"nden yaygın olarak yararlanılmıştır.

Anahtar kelimeler. Böcek, entomoloji, sert kanatlı böcekler, arkaik, omurgasızlar, eklembacaklılar, semantik, etimoloji, semantik değişimler, organik sıvılar, subtropikler, içgüdü, koruyucu kabuk, yaprak yeme, fonetik değişim

КЛАССИФИКАЦИЯ НАСЕКОМОЫХ (İNSECTORUM), ДАННАЯ В РУКОПИСИ «ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТУРК»

*Собитов Аззамхон Турсунпулотович,
преподаватель Факультет мировых языков
межфакультетской кафедры иностранных языков
Наманганского государственного университета*

Аннотация. В данное статье рассматривается сравнительный анализ названий насекомых, принадлежащих к семействам Двукрылые, Перепончатокрылые, Двукрылые,

Мягкокрылые насекомые, Паукообразные, Чаша, которые включены в рукопись XI века Махмуда Каигари «Диван лугат ат-турк» (Словарь турецких слов). Некоторые из этих зоонимов представляют собой отдельные слова, в то время как другие представляют собой пословицы и поэтические отрывки, которые считаются литературными жанрами. Эти зоонимы дополнены подробными пояснениями и определениями. «Толковый словарь узбекского языка» широко использовался для сопоставления древнетюркских и огузских названий насекомых, встречающихся в рукописи, с формами, используемыми в современных узбекских речевых процессах.

Ключевые слова. Насекомое, энтомология, жесткокрылые насекомые, архаика, беспозвоночные, членистоногие, семантика, этимология, семантические изменения, органические жидкости, субтропики, инстинкт, защитная оболочка, листогрызение, фонетические изменения.

CLASSIFICATION OF INSECTS (INSECTORUM) GIVEN IN THE MANUSCRIPT "DEVONU LUGO'TIT TURK"

Sobitov Azamkhon Tursunpo'lotovich,
teacher of the Faculty of world languages
interfaculty department of foreign languages
Namangan State University

Annotation. In this article, it is stated that the comparative analysis of insect names belonging to the families of dipterans, hymenopterans, hymenopterans, soft-winged insects, arachnids, and halicerans, which are included in the manuscript of Mahmud Kashgari's "Devonu lug'otit turk" (Turkish Dictionary of Words) dating back to the 11th century. Some of these zoonyms are found as single words, while others are found in proverbs and poetic fragments, which are considered literary genres. These zoonyms are enriched with detailed explanations and definitions. The "Uzbek tili izhohli lu'ati" (Uzbek explanatory dictionary) was widely used to compare the ancient Turkic and Oghuz insect names found in the manuscript with the forms used in modern Uzbek speech processes.

Keywords. Insect, entomology, hard-winged insects, archaic, invertebrates, arthropods, semantics, etymology, semantic changes, organic fluids, subtropics, instinct, protective shell, leaf-eating, phonetic change.

Tabiatda hasharotlar turli-tuman va katta ahamiyatga ega. Ular butun quruqlikni egallagan bo'lib, ayniqsa sernam subtropik yerlarda keng tarqalgan. Ko'pchiligi yerda, yana bir qator turlari suvda yashaydi, ba'zilarining hayoti tuproq bilan bog'liq. Hasharotlar xilma-xil mahsulotlar bilan oziqlanib, tabiatda moddalar alma-shinuvida ishtirok etadi. Hasharotlarning juda ko'p turlari o'simliklar zarar-kunandalari hisoblanib, hayvonlar va odamlarga zarar keltiradigan turlari ham talaygina. O'simliklarni changlatishda, begona o'tlarni yo'qotishda ham hasharotlarning roli katta. Hashoratlar xilma-xilligi va ularning olamini entomologiya fani, foydali hasharotlardan amaliyotda foydalanish va zararkunanda hasharotlarlarga qarshi kurash usullarini qishloq xo'jaligi entomologiyasi fani o'rghanadi [1, 76 b.].

B.Abdushukurov o'z ilmiy tadqiqot ishida qadimgi turkiy qo'lyozmalar tarkibida kelgan hasharotlar sinfiga oid zoonimlarni leksik-semantik jihatdan parazit hasharotlar, qo'sh qanotli hasharotlar, tangacha qanotli hasharotlar, to'g'ri qanotli hasharotlar, qattiq qanotli hasharotlar kabi kichik guruhlarga ajratib tahlil qiladi. Mazkur zoonimlarning aksariyati Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida qayd etilgan bo'lib, turli davrga oid boshqa qo'lyozmalar tarkibida kelgan hasharotlar bilan qiyosiy tahlil qilingan [2, 7 b.].

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida kichik chivin ma'nosini anglatuvchi so'z **ÿjäp** shaklida berilgan va o'g'uzcha deb qo'shimcha kiritib ketilgan bo'lsa [3, 112 b.], o'zbek tili izohli lug'atida esa ushbu zoonim shunday izohlanadi: "chivin – ikki qanotli, uzun

mo ‘ylovli, qon so‘ruvchi mayda hasharot” [4, 478 b.], ikki qanotlilarning kenja turkumiga kiruvchi, tanasi va oyoqlari ingichka, asosan lichinkalik davrida oziqlanadigan, suvda, nam tuproqda, o‘simgiliklar to‘qimasida va chirindilar orasida yashovchi hasharotlardir [5, 6 b.]. Qoshg‘ariy qo‘llanmasida kelgan **ÿjäp** hozirgi kunda lingvistik jihatdan arxaik so‘zga aylanib, iste’moldan chiqib ketgan. Mazkur qo‘lyozmada ari ma’nosida ishlatiluvchi so‘z – **apï** tarzida berilib, “ari, asal ari” deya izohlangan. Ushbu so‘z o‘zbek tili izohli lug‘atida parda qanotli hasharotlarning yirtqich va chaqadigan bir turi deya izohlangan, yana boshqa manbalarda panja tukari va uzun naychali hartumga ega, asosan jamoa bo‘lib yashovchi hamda gulli o‘simgiliklarning changlanishida katta ahamiyatga ega chaquvchi pardaqanotlilar katta oilasiga kiruvchi hasharot hisoblanadi [6, 891 b.]. “Devon” da berilgan **apï** so‘zi esa hozirgi kunga qadar biroz fonetik o‘zgarishga uchragan bo‘lsada, o‘z shakli va ma’nosini saqlab qolganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Pashsha ma’nosini beruvchi hayvon nomi “Devonu lug‘otit turk” qo‘lyozmasida **синак** tarzida berib ketilgan [7, 21 b.]. O‘zbek tili izohli lug‘atida ushbu zoonim shunday izohlanadi: pashsha – yoz faslida juda ko‘payib ketadigan, turli suyuq organik moddalar bilan oziqlanadigan qo‘sh parda qanotli hasharot. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, qo‘lyozmada kelgan **синак** so‘zi hozirgi kunga arxaik so‘zga aylanib qolgan. Ayrim manbalarda pashshalar ikki qanotlilar turkumiga kiruvchi, ayrim turlari har xil o‘tkir ichak kasalliklari, jumladan ich terlama, ichburug‘, vabo tarqatuvchi sinantrop tur deya ta’riflab ketilgan.

Qo‘lyozmada adabiy janr bo‘lmish maqol tarkibida kelgan hasharotlardan biri bu – ko‘k pashsha, so‘na ma’nolarida ishlatiladigan so‘z **көгәкүн** shaklida berilgan bo‘lib, “ko‘k pashsha, mol pashshasi (so‘na)” deya ta’riflab ketilgan va maqolda shunday kelgan: **икки бұғра ікәшүр өтпә көгәкүн жаңчылур** – *ikki ayg ‘ir olishadi va tishlashadi. Oralarida so‘na halok bo‘ladi.* Bu maqol ikki botir urushib, orada kuchsizlar halok bo‘lishiga ishora qilib aytildi. Ushbu termin o‘zbek tili izohli lug‘atida ikki qanotlilarga mansub, kalta mo‘ylovli hasharot bo‘lib, urg‘ochisi hayvonlar, ba’zan odam qonini so‘radigan, erkagi gullar shirasi va boshqa suyuqliklar bilan oziqlanadigan yirik pashsha deya ta’riflanadi. Ikki qanotlilarga mansub kalta mo‘ylov hasharotlar opilasiga kiruvchi, umumrtqali hayvonlar terisini oson teshuvchi, o‘rmon va cho‘l mintaqalarida keng tarqalgan hasharot. Yuqoridagi qo‘lyozmada kelgan **көгәкүн со‘зи** bugungi kunda o‘zbek tili iste’molida o‘z shaklini yo‘qtogani holda arxaik so‘zga aylanib, uni o‘rnida so‘na so‘zidan foydalanib kelinmoqda.

Qo‘lyozmada hozirgi kunda qo‘ng‘iz ma’nosini anglatuvchi so‘z бөй (o‘g‘uzcha) tarzida berilgan. O‘zbek tili izohli lug‘atida ushbu zoonimga shunday izoh beriladi: “qo‘ng‘iz – qattiq himoya qobig‘i bilan qoplangan hasharotlarning umumiyy nomi”. Asosiy qismi yumshoqqanotlilar turkumiga kiruvchi, o‘simgiklarga zarar yetkazuvchi instiki bilan bargxo‘r, asal bilan oziqlanishiga qarab asalxo‘r, yog‘och po‘stloqlari bilan kun kechirishiga qarab po‘stloqxo‘r kabi tiplarga bo‘linib ketadi [8, 49 b.].

“Devonu lug‘otit turk” qo‘lyozmasida o‘rgimchak ma’nosida ishlatiluvchi hasharot nomi **шүтті** shaklida berilgan [9, 224 b.]. Bugungi kunda **шүтті** so‘zi leksik jihatdan eskirgan bo‘lib, o‘rgimchak shaklida nutqa foydalanib kelinmoqda, Aksariyat zoologik manbalarda shunday ta’riflanadi “o‘rgimchak – o‘rgimchaksimonlar oilasiga mansub, zararkunanda va boshqa umurtqasizlar bilan oziqlanuvchi, asosan quruqlikda yashovchi bo‘g‘imoyoqlar tipiga mansub hasharot”.

Chayon ma’nosida ishlatiladigan so‘z Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” qo‘lyozmasida **чазан** tarzida berilib, she’riy parchada shunday kelgan:

Сёндә қонар чазанлар,

Күзегү синак жіланлар,

Дүк мін қују тұмәнлар,

құзруқ тікіб жүгрүшүр. ya’ni qish bilan yoz tortishuvini ta’riflab, qish yozga aytadi: senda chayonlar, pashsha, chivinlar, xalqqa ozor beruvchi xar xil hasharotlar bor. Senda ilonlar dumlarini o‘rab (gajjak qilib) xalqqa hamla qiladilar. O‘zbek tili izohli lug‘atida ushbu zoonim

shunday izohlanadi: “chayon – o‘rgimchaksimonlar sinfiga mansub bo‘lgan bo‘g‘imoyoqlilar turkumiga kiruvchi zaharli hasharot”. Xalitserialilar kenja tipiga mansub bo‘g‘imoyoqlilar sinfiga kiruvchi, boshko‘kragi yaxlit qalqon bilan qoplangan, spermatoforlar yordamida urug‘lanadigan hasharot [10, 71 b.].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” qo‘lyozmasida kelgan hasharot nomlari birinchi navbatda nafaqat adabiyotshunos va qo‘lyozmashunos balki zoologiya soxasi tadqiqotchilari uchun ham mazkur zoonimlarning etimologiyasi, tabiatni, semantikasi va lingvistik o‘zgarishlarini tadqiq etishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Qolaversa, qo‘lyozmada she’riy parchalar tarkibida kelgan ayrim zoonimlar inson tabiatni, harakteri hamda ijtimoiy sifatlarini yoritishda beqiyos ahamiyatga ega. Misol tariqasida qo‘lyozmada kelgan quyidagi izohga e’tibor qaratsak, **іккі буғра ўқашўр ётрап көгækүн јанчилур – ikki ayg‘ir olishadi va tishlashadi.** Oralarida so‘na halok bo‘ladi. Mazkur maqol ikki botir urushib, orada kuchsizlar halok bo‘lishiga ishora qilib aytildi. Eng asosiysi mazkur izlanishlar soxa rivoji uchun oz bo‘lsada o‘z hissasini qo‘sibgina qolmay, keying tadqiqot ishlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мурадов С. А, Вредне и полезно насекомые клопчатника и дубикс сельскохозяйственной культуры Узбекистана. 1977.
2. Abdushukurov. B, “XI-XIV asrlar turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar” nomli diss. Ozbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti. – 1998, Toshkent. 7 - b
3. Муталибов. С, (таржимон ва нашрга та нашрга тайёрловчи) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луготит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, I том, №: 81. Тошкент. 1963. 112, 114 - бб.
2. Мадвалиев. А ва бошқалар, “Ўзбек тилининг изоҳли лугати”, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, Тошкент. 2021. 478, 97, 243, 615, 410, 444 - бб.
3. Виноградова Е. Б., Карпова С. Г.. Сезонные и суточные ритмы кровососущих комаров. СПб.: Зоологический институт РАН, 2010. ISBN 978-5-98092-092-6.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 2010. 891 - б.
5. Муталибов. С, (таржимон ва нашрга та нашрга тайёрловчи) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луготит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, II том, №: 81. Тошкент. 1963. 21, 332 - бб.
6. Ergasheva X., Egamberdiyev M. Entomologiya. O‘quv uslubiy qo’llanma, - Namangan Namangan davlat universiteti,, 2023.
7. Муталибов. С, (таржимон ва нашрга тайёрловчи) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луготит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, III том, №: 81. Тошкент. 1960. 224, 237, 378, - бб.
8. Richard J. Howard, Gregory D. Edgecombe, David A. Legg, Davide Pisani, Jesus Lozano-Fernandez. Exploring the evolution and terrestrialization of scorpions (Arachnida: Scorpiones) with rocks and clocks // Organisms Diversity & Evolution. -2019-03-01. - Vol. 19, iss. 1. -P.

71-86. ISSN 1618-1077. DOI:10.1007/s13127-019-00390-7. Архивировано 18 avgust
2023 года.

Internet manbalar:

1. www.kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/mahmud-koshgariy-va-uning-devoni-lugatit-turk-asari-videoedars-devoni-lugatit-turk-3-jildlik.html
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Devonu_lug%C4%9B_Botit_turk
3. <https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/download>
4. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/27903/28>
5. <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/30310/19406/30119>